

## NAZAR ESHONQUL VA ULUG'BEK HAMDAM IJODIDA BADIY OBRAZLAR POETIKASI

O'lmasaliyeva Odinaxon Bahromjon qizi

CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18388734>

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam ijodida badiiy obrazlarning poetikasi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, obrazlarning ijobiylik va salbiy xususiyatlari ularning badiiy konstruksiyasi har ikkala ijodkor asarlari qahramonlari misolida ifodalangan. Asar qahramonlarining umumlashma obrazlari va rivojlanish dinamikasi yuzasidan Ulug'bek Hamdam va Nazar Eshonqulning roman va hikoyalari tahlilga olingan. Shuningdek, maqolada mavzuga oid adabiyotlar tahlili qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyasiga asoslangan holatda ifodalangan.

**KALIT SO'ZLAR:** Tipik obrazlar, prototip, individual obraz, konflikt, psikologik portret, spetsifistik xususiyatlar.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kunda adabiy-badiiy asarlarni tahlil qilish, ularning mohiyatini kitobxonlarga yetkazish nafaqat adabiyotchilar, balki ilm fan yo'lida xizmat qilayotgan har qanday shaxsning mukammal vazifasi hisoblanadi. O'zbek adabiyotida yaratilgan adabiy-badiiy asarlarning tahlil jarayoni ularning davrlariga ko'ra farqlanadi. Xususan qatag'on davri adabiyoti va mustaqillik yillari davridagi adabiyotning birmuncha farqli jihatlari obrazlar va ularning individuallashtirilgan umumlashma vositasida yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlarda esa, umumlashgan tipik obrazlar bilan birga prototiplar ham ko'zga tashlana boshlandi. Asarlardagi obrazlar orqali jamiyat hayotida mavjud bo'lgan shaxslarning hayoti hayot yo'li badiiy bo'yoqlar va sayqallar orqali kitobxonlarga yetib borishi an'anaga aylanib ulgurdi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning fikriga ko'ra obrazlarning yaratilishi va xususiyatlariga ko'ra individuallashtirilgan umumlashma obraz sifatida yaratilishi jamiyat hayotidagi voqelikning chambarchas qismi sifatida xizmat qiladi. Bu esa obrazli tafakkur va abstrakt tafakkurning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Obrazlarning ijobiy va salbiylik xususiyatiga ko'ra asar qahramonlarining kitobxon qalbidan o'rin olishi bilan belgilanadi. Rus tilidan tarjima qilinganda "obraz" tushunchasi "aks" ma'noni bildiradi. Ushbu termin adabiyotga integratsiyalashtirilgan bo'lib, voqelikda ishtirok etuvchi qahramonning badiiy tasvirlanishi, umumlashma hosil qilishi muallifning tasvirlash uslubi hosilasi sifatida qaraladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)** O'zbek adabiyotida sermahsul ijodi bilan ajralib turadigan Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam asarlari tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Qarshi davlat universiteti xodimasi Shukurova Sabohat Odilovnaning qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohasida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mavzusi "Jon Steynbek va Nazar Eshonqul asarlarida shaxsiy erkinlik va jamiyat munosabatlarining badiiy-falsafiy talqini" etib belgilangan. Jizzax davlat pedagogika universiteti faoli Gulbegim Bozorbekovanning "Filologiya ufoqlari" jurnalida chop etilgan "O'zbek modern hikoyalari (Ulug'bek Hamdam va Nazar Eshonqul ijodi misolida)" maqolasi adabiy-badiiy manba sifatida xizmat qilibgina qolmay, mavzuning o'rganilish darajasini izohlaydi. Urganch davlat universiteti magistranti Xudarganova Dildoraning "Hozirgi o'zbek nasri va Ulug'bek Hamdam ijodi" nomli maqolasi, Namangan davlat universiteti magistranti Valiyeva

Diyorning “Sabo va Samandar” romanida ayollar psixologiyasi va xarakter masalasi nomli maqolasi, “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyada Oripova Nurafshon Olimjon qizining “Nazar Eshonqulning modern asarlari tahlili” nomi ostida chop etilgan maqolasi mavzuga doir adabiyotlar tahlili sifatida xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ulug'bek Hamdam tomonidan yaratilgan “Yolg'izlik”, “Muvozanat”, “Sabo va Samandar”, “Ota”, “Yaxshiyam sen borsan” asarlarida ham bir biriga o'xshamagan obrazlar va talqinlarni uchratish mumkin. Said Ahmadning “Jimjitlik” romani qahramoni Mirvali va Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasida uchrovchi Zamon otboqar kabi salbiy obrazlari orqali jamiyat hayotining konkretlik tamoyili asosida spetsifik xususiyatlarni namoyon etadi. *“Shamolni tutib bo'lmaydi”dagi Bayna momodek matonatli insonlar, “Xaroba shahar surati”dagi parishon yigit, o'z tanazzulini sezmagan saylovga nomzodi qo'yilgan shoir, unga qarama-qarshi tarzda o'z mag'lubiyatini seza turib, bunga ko'nikkan professor, “Xayol tuzog'i”dagi aldov va maqsadsizlik ustiga qurilgan bu dunyodan voz kechgan Voqif, inson miyasini taomiga aylantirgan “To'zon”dagi maxluqlarga urush ochib, o'zi ham uning domiga tushgan yozuvchi yigit, “Lazzat ortida qolgan yurak”dagi kabi yo'qlik va noma'lumlik, puch g'oyalarga berilgan talabalarning o'y-xayollari, orzu-armonlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari aks etgan bir qator hikoyalar dunyoga keldiki, ular Xurshid Do'stmuhammadning ta'biri bilan aytganda bugungi “uyg'onish badiyatining” nodir namunalari sirasiga kiradi.”[1]*

Haqiqatdan ham Bayna momi obrazi orqali davrning zulmkor insonlari tomonidan xo'rlangan, ezilgan xalq hayotini tushunish mumkin. Bayna momo esa yerlarning o'zlashtirilishi, mol-mulkklarining hech qanday so'rovlarisiz musodara qilinishi, yaqinlarining esa oddiy sabablar bilan o'ldirib yuborilishiga ojizlik bilan ko'zyoshi to'kib yashovchi ayollarning tipik obrazidir. “Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasi orqali muallif Bayna momo obrazi orqali jamiyat hayotida bunday voqea va hodisalar, u singari ezilgan ayollar ko'p bo'lgan ekanligiga urg'u bersa, Zamon otboqar obrazi orqali jamiyat kushandalarning tiplashtirilgan vakillaridan biri edi xolos. “Nazar Eshonqul obrazlari puxtalik bilan yaratilgan bo'lib, ko'p hollarda keng, ijtimoiy va madaniy mavzularni o'zida mujassam etgan. Hikoyaning markaziy qahramoni Bayna momo eski uslublar va tinimsiz modernizatsiya sharoitida an'ananing mustahkamligini ifodalaydi. Uning shaxsiy fojiasi, eri va o'g'lini yo'qotish uning boshdan kechirgan umumiy jarohatni aks ettiradi. Eshonqulov o'z personajlari haqida psixologik tushuncha berib, ularni murakkab va bir-biriga bog'lab qo'yishda mohir. U ularning qo'rquvlari, umidlari va ichki ziddiyatlarini chuqur o'rganadi, o'quvchi bilan chuqur hissiy aloqa o'rnatadi. Jumladan, Bayna momoning o'tmishdagi yo'qotishlar bilan ichki kurashi, atrofidagi o'zgaruvchan dunyoga qarshikurashi ajoyib ta'sirchanlik bilan tasvirlangan”. Nazar Eshonqulovning *“Shamolni tutib bo'lmaydi” asaridagi hikoya qilish texnikasi tasviriy boylik, psixologik teranlik va madaniy chinakamlilikning mohirona uyg'unligi bilan ajralib turadi. Uning hamma narsani bilish nuqtai nazaridan, batafsil tavsiflardan, ramziylikdan va madaniy elementlarning integratsiyasidan foydalanish kuchli va immersiv o'qish tajribasini yaratadi. Eshonqulov shaxsiy va ijtimoiy mavzularni o'zaro bog'lash orqali hikoyani nafaqat ta'sirchan qiladi, balki insonning ahvoli va o'zbek jamiyatidagi madaniy o'zgarishlar haqida chuqur tushunchalar beradi. Nazar Eshonqulovning “Shamolni tutib bo'lmaydi” asarida til va obrazlardan foydalanish uning hikoyalari ta'sirchanligi bilan uzviy bog'liqdir.* [2]

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida ifodalangan obraz orqali o'zbek otalarining qiyosiy tahlili namoyish etilgan degan fikrlar mavjud. Ulug'bek Hamdam obrazini yaratishda mukammallik bilan harakat qilgan. Bunga sabab, Po'lat asarning boshidan oxirigacha asar kompozitsiyasini birlashtirib turuvchi zanjir sifatida baholanadi. *"Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani adabiyotshunoslar va yozuvchilar tomonidan keng muhokama qilinib, asardagi ota obrazi qahramonlar ruhiyati va milliy qadriyatlarning ifodasi haqida turli fikrlar bildirilgan. Masalan, Miraziz Komilov o'z maqolasida romandagi ota obrazining ruhiyati, uning oiladagi roli va milliy mentalitetdagi o'rnini tahlil qilga".[3]* Po'lat obrazi orqali ijobiy va salbiylik xususiyatlarini bir obrazda namoyish etish imkoniyati asarning qimmatlilik darajasini oshirgan. Misol tariqasida Po'latning uyida yong'in bo'lishi, Erboy bilan munosabatlar, homilador qizining joniga qasd qilishi kabi voqealar uni asar syujetiga ko'ra har qiyofada ifodalashga xizmat qiladi.

"Sabo va Samandar" romanida birato'la ikki obraz taqqoslanadi. Nodir va Samandar deganda kitobxonning ko'z o'ngiga muhabbat va sadoqat timsoli gavdalanadi. Asar kompozitsiyasi va Samandarning Sherdilga bo'lgan munosabati, Sabo va Aziza bilan bo'ladigan muloqot orqali farqli jihatlarni sezish mumkin. *"Bu qanday jazodir, tushuntir, Xudo!" Hadeb o'sha tomonga qararmish-da, Samandarni ko'rib sevinarmish, tosharmish... Biroq alhol allaqayoqdan bola nidosi kelibdi. Alanglab, oila deb atalmish qirg'oqda qizi va o'g'lining ko'zlarida yosh bila mo'ltirab turganini ko'ribdi. Shunda Sabo hamma narsani, ikkala qirg'oqni ham unutibdi. Beixtiyor bolalariga qarab suzibdi. Quturgan to'lqinlar unga xalaqit berish o'rniga tanlagan qirg'og'i sari borishiga ko'maklashib yuboribdi. Hash-pash deguncha Sabo o'zini farzandlari quchog'ida ko'ribdi va orqasiga qayrilib, mung'ayib jon taslim qilayotgan ikkinchi sohil -malul Samandarga ko'zi tushibdi. Shunda u nima qilganini anglab yetibdi-yu, baqiribdi: Samandar!!!".[4]* O'xshashlik jihati shundaki, Samandar va Nodirda parishonlik, qaltis vaziyatlarda hukm chiqarish, ayollar bilan munosabatda ikkilamchi ko'zqarash kabilar ahamiyat kasb etadi.

Nazariy eshonqulning "Urush odamlari", "Momoqo'shiq", "Ufq ortidagi quyosh", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Maymun yetaklagan odam" kabi asarlari adabiyotchilar orasidan muhokama mavzusiga aylanib ulgurgan. Bunga sabab esa, muallifning obrazlari yaratishdagi o'ziga xosligi, so'z qo'llash mahorati, identitetual uslub tarzining milliy mentalitetimizga qorishiq ekanligidir. Nazar Eshonqulning "qora kitob" qissasida qahramonning ichki konflikti shaxsiy mushohada va umr bayonining o'z-o'zi bilan kechishi Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub "Ota" romani bosh qahramoni Po'lat ota misolida yuzaga keladi. Bu ikkala asarning obrazlari umumlashma sifatida milliy mentalitetimiz, adabiy-badiiy ko'zqarashlar belgisi ekanligidan nishonadir.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Nazar Eshonqul asarlarida obrazlarning ijobiylik va salbiylik xususiyasiga ko'ra ularning psixologik holati muallif pozitsiyasi bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Ulug'bek Hamdam asarlarida esa obrazlarning arxitek, tipik va individual xususiyatlarini sezish mumkin. Har ikkala ijodkor asarlarida obrazlarning mohiyatiga ko'ra badiiy vositalar orqali ifodalanishida dialoglar, turli detallar, konflikt kabilar yetakchi rol o'ynaydi. Nazar Eshonqulning "maymun yetaklagan odam", "shamolni tutib bo'lmaydi" kabi asarlari kitobxonni falsafiy mushohida yuritishgan va asar atrofda bo'layotgan voqea hodisalarga nisbatan mushohadaga undaydi. Shunga ko'ra, obrazlarning badiiy konstruksiyasi obrazlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lishida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Oripova Nurafshon Olimon qizi “Nazar Eshonqulning modern asarlari tahlili” maqola. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” konferensiya 151 b.
2. Ne’matov Amirxon “Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo’lmaydi” asaridagi o’ziga xos hikoya uslubining izlanishlari” maqola. Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. 2024 y
3. Ulug’bek Hamdam, “Ota” Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2022-yil
4. U.Hamdam. “Sabo va Samandar”. T., Sharq. 2007.